

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA ONA YURTGA MUHABBAT MADHI

Asrorova Marjona Obid qizi

Samarqand davlat pedagogika institute Tillar fakulteti 1-bosqich talabasi

Imomqulova G

Ilmiy rahbar: Samarqand davlat pedagogika institute Tillar fakulteti assistenti

Annotatsiya: *O'zbek adabiyotining yirik zabardast vakillaridan biri Erkin Vohidov ham o'z uslubi va yo'nalishiga ega bo'lgan ijodkor sanaladi. Erkin Vohidov o'z uslubini, badiiy mahoratini goh lirikada, goh mumtoz poetikada, goh tarjimada, goh dramaturgiyada namoyon etib, bir qator ibratli yutuqlarga erishgan. Erkin Vohidovning ona yurtiga, millatiga bo'lgan jonkuyarligi, xalqiga bo'lgan sadoqati va fidoiyligi shoirning ijod namunalari orqali tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *Vatanparvarlik, milliy g'urur, sadoqat va fidoiylilik, millat tarbiyachisi.*

PRAISE OF LOVE FOR THE MOTHERLAND IN THE POETRY OF ERKIN VOHIDOV

Anotation: *One of the major zabardast representatives of Uzbek literature, Erkin Vohidov, is also considered a creator with his own style and direction. Erkin Vohidov has achieved a number of instructive achievements, showing his style, artistic skills in poetry, classical poetry, translation, drama. The passion of Erkin Vohidov for his native land, his nation, his loyalty and devotion to his people were analyzed through examples of poetic creativity.*

Keywords: *Patriotism, national pride, loyalty and selflessness, educator of the nation.*

ГИМН ЛЮБВИ К РОДНОМУ КРАЮ В СТИХАХ ЭРКИНА ВАХИДОВА.

Аннотация: *Один из крупнейших представителей узбекской литературы Эркин Вахидов также считается творцом со своим стилем и направлением. Эркин Вахидов, проявив свой стиль, художественное мастерство то в лирике, то в классической поэтике, то в переводе, то в драматургии, добился ряда поучительных успехов. Страсть Эркина Вахидова к родной земле, нации, преданность и преданность своему народу анализировались на примерах творчества поэта.*

Ключевые слова: *патриотизм, национальная гордость, верность и бескорыстие, воспитатель нации.*

Har bir shoir uslubining mukammal ko'rinish kasb etishida, u yashab ijod etgan davrning turli sohalardagi hayot tarzi, sharoiti hamda adabiy jarayoni muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotshunos olim I.Haqqul bu borada shunday yozadi: —Davr ruhi, zamon nafasi, jamiyat dardi ham dastlab ijodkor shaxsiga ta'sirini o'tkazib, undan so'ng asarlariga ko'chadi.[2, 20]. Uslub san'atkor ijodiy qobiliyatining samarasi, shu bilan birga, ijodiy qobiliyat yetukligi, originalligining o'ziga xosligi ifodasi.

Uslub orqali ijodkorning shaxsiyati, ijodiy individuallik kamoloti, adabiy jarayondagi mustaqilligi, badiiy tafakkur tipi, ijodiy mahorati anglashiladi. Uslub ijodkor badiiy olamidagi original ifoda va yechimlarni jamlaydi, ko'rsatadi. Bilamizki, Erkin Vohidov o'zbek xalqining sevimli shoiri, milliy g'urur va ma'naviyat timsolidir.

U hayoti davomida adabiyot, madaniyat va davlat marosimlarida faol ishtirok etgan, milliy qadriyatlarimizni keng targ'ib qilgan. Shoirimiz so'z seyrini his qilgan, uni san'at darajasiga olib chiqqan shoirlardan biri bo'lgan. U har bir satrni yuragi va qalbi bilan his qilgan holda qalam tebratgan va o'zbek jamiyatida yuksak maqomga erishgan shoir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shoirimiz ham har bir so'zini lug'at boyligidan saralab-saralab, kitobxonlar uchun ma'naviy hordiq xazinasi bo'lishini ta'minlagan. Shoirimizning har bir satrida insonning orzu-intilishlari, mehr-muhabbat va g'ururi aks ettiradi. Erkin Vohidovning qalbi Vatan bilan bir urardi. U o'z she'riyatida Vatan tuyg'usini birinchi o'ringa qo'ygan. Sof muhabbatini she'rlariga o'ta yuksak mahorat bilan singdirgan.

Shoir uchun Vatan – ona, til - yurak, xalq - jon edi. Har bir she'rida xalq tarixi, mehri, or-nomusi tarannum etildi va xalqning og'rig'ini o'z og'rig'i deb bildi. U nafaqat shoir, balki ma'naviyat yo'l boshchisi bo'lgan deb hisoblayman. Chunki Vatanini sevgan, Vatan mehri bilan qalam tebratgan inson, albatta, o'qiyotgan minglab kitobxonlarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Shoirimizning ijodiga murojaat qilar ekanmiz, har bir satri nimalarnidir so'zlayotgandek, jonli yaqin tariximiz, erkimiz va istiqbolimizdan xabar beryotgandek his tuydim, vujudim junbushga keldi. Biror so'zga duch kelmaysizki, siz ortiqcha yoki oldi-qochdi deb hisoblaydigan, biror g'oya yo'qki sizni shubhalantiradigan. Erkin Vohidov uchun Vatan – bu faqat yer va suv emas, balki ona tili, xalqning ruhi va kelajagi edi.

U yoshlarni ona yurti uchun mehnat qilishga, uni ardoqlashga, milliy qadriyatlarini asrashga da'vat etgan. Qachonki millat bolalari o'z vatanini sevmas, boshqa millatlardan ko'ra, ham qalbi ham yuragi bilan ziyoda ko'rmas, o'z tili va millat an'alaridan foydalanishni g'urur deb bilmas ekan, ular hech qachon millat farzandlari bo'la olmaydi deb hisoblagan.

Ijodkorning "O'zbekim qasidasi"da Sovet davrida, ya'ni o'zbek milliy g'ururi, ona tiliga va Vataniga muhabbatni ochiq ifodalash qiyin bo'lgan paytda yozilgan. O'sha davrda milliylik, vatanparvarlik g'oyalarini ochiq targ'ib qilish siyosiy jihatdan xavfli edi. Shunday sharoitda Erkin Vohidov "O'zbekim" qasidasini yozib, xalq qalbida milliy iftixor, o'zligini anglash, g'urur tuyg'ularini uyg'otdi. Qasidada shoir o'z xalqini, o'zbek

millatini, uning qadimiy madaniyatini, mehnatkashligini mehmondo'stligini madh etadi. "O'zbekim" degan so'z orqali ona yurtga sadoqat, xalqiga faxr tuyg'ulari ifoda etilgani yaqqol namoyon. Bu asar o'z davrida milliy uyg'onish ramzi bo'lib, xalq orasida tez tarqaldi, kuyga solinib, qo'shiq sifatida ham mashhur bo'ldi. Jumladan:

Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, qabul et,
O'zbekim, jon o'zbekim. ["O'zbekim" 11]

Ushbu satrlarida xuddi shunday fazilatlar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, "Vatan istagi" nomli she'rning boshidagi bu to'rtlikda

"Bu Vatanda bir Vatan qurmoqni istaydir ko'ngil,
O'zni ozod qush kabi ko'rmoqni istaydir ko'ngil" ["O'zbekim" 12]

Shoirning yurakdagi orzusi – Vatanini yanada go'zal, ozod va baxtli ko'rish istagi ifodalangan. Shoirning "ko'ngli" bu yerda xalqning qalbi, ijodkorning orzusi ramzidir. "Bu vatanda bir vatan qurmoq" – bu satr orqali shoir o'z yurtini yanada obod, erkin, adolatli davlatga aylantirish niyatini bildiradi, "O'zni ozod qush kabi ko'rmoq" – bu esa erkinlikka, mustaqillikka, ruhiy ozodlikka tashnalikni ifodalaydi.

Qolgan ikki satrda esa xalq baxti, tinchligi va mehr bilan to'lish orzusi tasvirlangan deb hisoblayman. Shoir bu she'rni keltirib bir maqolasida shunday deydi: "Istiqlolimiz hali uch yoshga to'lgani yo'q... O'z mustaqil davlatimiz, Konstitutsiyamiz, jahon minbarida hilpiragan bayrog'imiz bor. Jahon hamjamiyatiga shahdam kirib borayotgan O'zbekistonimiz bor. Olam bilan oliy darajada bordi keldilarimiz, tiklanayotgan qadiryatlarimiz, o'sayotgan g'ururimiz bor. Men uchun bularning hammasi aziz va muqaddas..." ["Erk saodati" 33]. Bu jumlar orqali o'z istagini birin ketin amalga oshyotganini ta'kidlagan bo'lishi ham mumkin. Yana xuddi shunday tasvir "...Vatan hurriyati uchun hamisha, fidolikka tayyor hayoting kerak" "Xalq so'zi" gazetasi iboralari orqali ham ifodalangan.

Binobarin, shoir doim o'z vataniga nisbatan g'urur, iftixor va faxr tuyg'usi ila yashagan. Misol uchun: "Yurtimni kemaga o'xshatganlari to'g'ri. Faqat u adashgan va boshqaruvsiz emas... jahon ummonida o'z yo'lini va manzillarini belgilab olgan ulkan kemadir..." ["Erk saodati" 193] kabi misralardan ma'lum bo'ladiki, endi bu vatan eski tuzumdagi qoloq, bo'ysunuvchan va erksiz emas, balki yangi taraqqiyot sari yangi qadam tashlayotgan buyuk davlat deb his qilgan. Bu ham Vatanparvarlikning yaqqol namunasidir. Erkin Vohidov: "Men ko'ngil tubidagi orzularimni yozdim. Mustaqillik uni ro'yobga chiqardi. Dunyoning katta daryolariga qo'shildik" ["Erk saodati" 48] deya buni yana bir bor isbotlaydi.

Shoirimiz hamisha Vatan dardi bilan, tashvishi bilan yashagan, u uchun ko'plab fidokorliklar ko'rsatgan bo'lsada, o'z vijdoni, o'zligi oldida Vatanparvarlik atalmish vazifani, qadrlash tuyg'usini to'laqonli ado eta olmaganini bot-bot uqtiradi. Yana bir "Vatanda yashab, biz o'zimiz ko'pincha uning qadrini his etmadik. Negaki, biz o'z vatanimizning chinakam egasi bo'lolmadik. Ruhimizga begona bo'lgan tuzum va

dunyoqarash asiri bo'ldik, o'zga til va o'zga urf-odat tazyiqida hayot kechirdik..." ["Erk saodati" 9]

Bilma, farzandim, Vatan hajrini
Lek qadrini bil-
Kim Vatan qadrini bilmas,
Angla, komilmas kishi. ["O'zbekim" 13]

Haqiqiy vatanparvar shaxs, vatanni sevuvchi inson o'zida qoniqish his qiladi. Doimo yanada manfaati tegishini, o'zini yurti uchun fido etishni yuragidan xohlaydi va men Erkin Vohidovni ana shunday timsol sifatida ko'rdim. O'ylaymanki, bunga so'zsiz isbot. "Elga faqat shodlik hadya etarman, g'amni o'zim bilan olib ketarman..." ["Erk saodati" 284]. To'g'ri bu boshqa misralar kabi oddiy ko'rinishi mumkin tashqi tomondan, ammo insonning eng bebaho, shirin narsasi – joni. Shunday vaziyatda shoir barcha g'amni o'z jussasiga olishi, xalqiga esa faqat shodlik ilinishini aytib o'tadi. Shuningdek:

Vatan, to tanda jonim bor,
Seningdirman, seningdirman,
Tanim xok o'lsa ham sen yor,
Seningdirman, seningdirman. ["O'zbekim" 14]

Bu she'rda ham shoir o'z tan-u jon vatan tuyg'usi bilan bir ekanligini aytib o'tadi. Shoirning Vatan madhini kuylagan she'rlari juda ko'p. "O'lka", "Ona tuproq", "Navro'z nashidasi", "Bir nihol", "Vatandin yaxshi yor bo'lmas", "Vatan istagi", "Vatan qadri", "16-fevral 1999-yil", "Vatan sog'inchi", "Turkiston bir Vatan bir", . Quyidagi she'rlarida ham Vatan tuyg'ulariga alohida e'tibor qaratilgan. Har bir misrasida unga bo'lgan muhabbat, ehtirom aks etgan. Shuning uchun, "Vatan" "Millatparvar" iboralarini eshitsak, ko'z oldimizga birinchi bo'lib shoirimiz gavdalanadi. Bunday maqomga erishish uchun adib o'z hayotini yozishga sarflagan va bizga ma'naviy meros qoldirgan.

Shoirni Vatanparvar timsol sifatida ko'rdik, bu faqat u yozgan she'rlaridagi muhabbat, faxr va g'urur bilangina o'lchanmaydi. Uni ideal Vatanparvar deyishimiz uchun yana bir dalil u aziz tuprog'i kelajagi haqida ham qayg'uradi. Millat farzandlarini milliy ruhda tarbiyalash lozimligini aytib o'tadi va millat tarbiyachisi degan nomni oladi. Masalan: "Uyg'on" she'rda yosh avlodni, umuman olganda barchani ilm-u urfonga, uyg'onishlikka, vatanparvarlikka chorlaydi. Boshqa millatga qaram bo'lgandan ko'ra kimki ilmni, iymonni birglikda tutsa qo'li ustun kelishini ta'kidlaydi.

"Bir nihol" she'rda ham Vatanga bo'lgan muhabbat o'z o'zidan paydo bo'lmaydi u shakllantiriladi, mehr ila parvarishlanadi degan g'oya yotadi deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Erkin Vohidov nafaqat shoir balki Vatanni faxr, g'urur, milliy o'zlik, ma'naviyat tushunchalarini bilan uyg'unlashtirgan shaxs. Birgina maqolamiz shoirning ijodidagi bu ulkan tushunchani to'liqligicha ifoda eta olmasligi tabiiy, ammo bir qisminigina ochib berishga ma'lum darajada hissa qo'shadi deb hisoblaymiz.

“Otin Qalam” sohibi Erkin Vohidov, uning har bir yozgan misrasida chuqur ma’no va his mujassam. Ko’plab maqolalarida, nutqida va she’rlarida barchamiz uchun qadrli bo’lgan Vatan madhini kuylagan.

Yozuvchining bizga qoldirgan ma’naviy xazinalari nafaqat o’quvchilar tomonidan hozirgacha sevib o’qiladi, balki kelajak avlod uchun ham qoldirilgan meros deb ham hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Erkin Vohidov, “O’zbekim”. “Yangi asr avlodi”, 2019.
2. Erkin Vohidov. Asarlari oltinchi jild. Erk saodati. “Sharq” nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. –T.: 2018. B311.
3. Baldauf I. XX asr o’zbek adabiyotiga chizgilar. T., Ma’naviyat, 2001.
4. Adabiy tur va janrlar. 3 jildli.2-jild.Lirika. –T.,Fan, 1992. –B.193. 20